

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

**O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB
MUAMMOLARI**

Baxriddinov Tolibjon

Toshmamatov Javohir

Xo'sinboyev Xusniddin

Toshkent moliya instituti talabalari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston moliya bozorini rivojlanishning muammolari va uning ilmiy-nazariy tahlili haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, moliya va kredit tizimi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Moliya bozori, birja, kredit, aksiya, qimmatli qog'ozlar, davlat iqtisodiyoti, model.*

Har qanday davlatning zamonaviy mustaqil rivojlanishining ustuvor yo'naliishlari ko'p jihatdan uning milliy manfaatlarini qay tarzda aniq va bir shaklda shakllantirishga, shuningdek, ushbu manfaatlarning amalga oshirish usullari va vositalarini aniq anglashga bog'liqdir. Birinchidan, davlat barqaror rivojlanishining ustuvor maqsadlaridan biri bu uning barcha shakl va ko'rinishlarida milliy xavfsizlikni ta'minlashdir. Milliy xavfsizlik tushunchasi milliy manfaatlar konsepsiyasining hosilasidir va keng ma'noda fuqarolarning zamonaviy dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'rni va roli haqida davlatning umumiy qarashlari. Davlatning tashqi va ichki siyosati ko'plab sharoitlar va omillar bilan belgilanadi, ular orasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy rivojlanish darajasi, jug'rofiy va geosiyosiy holati, milliy-tarixiy an'analari, maqsad va ehtiyojlari, davlat suvereniteti va milliy xavfsizligini ta'minlash vazifalari. Bularning barchasi va omillari milliy manfaat tushunchasida aks ettirilgan.

Hozirda mamlakat iqtisodiyoti chet el investitsiyalari uchun past jozibadorligi bilan ajralib turadi, shu bilan birga milliy kapitalning chet elga chiqib ketishi kuzatilmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozori barqarorligini saqlashi va rivojlanish uchun asos bo'lishi uchun mamlakat ichidagi moliyaviy munosabatlarning barcha ishtirokchilari bozorning himoyasi va yaxlitligini ta'minlaydigan prinsiplarga amal qilishlari kerak. Bozor faoliyatining barqarorligini tahlil qilish uchun avvalo zarar etkazishi mumkin bo'lgan tahdidlar ro'yxatini aniqlang. Shunday qilib, salbiy ta'sir omillari odatda tashqi va ichki tahidlarga bo'linadi. Tashqi omillarga quyidagilar kiradi: rivojlangan va barqaror bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat; yanada jozibador xorijiy pul vositalariga kapital oqimi; mamlakatlarning siyosiy aloqalari; yuqori texnologiyalarni rivojlanish va ularni aksionerlik faoliyatida qo'llash. Ichki omillar orasida quyidagilar ajralib turadi: real aktivlar bilan ta'minlanmagan aksiyalar va obligatsiyalar ishlab chiqarish; emitentning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

yashirish maqsadida sun'iy narxlash; birjalarda narxlarni boshqarish; aholining moliyaviy savodxonligining past darajasi; huquqiy bazaning nomukammalligi; aksiyadorlik vositalarini saqlash bo'yicha shaffof tizimning yo'qligi; valyuta monopoliyasi; xorijiy kapitalning past jozibadorligi; sanoat josusligidan foydalanish. Iqtisodiy xavfsizlikni tahlil qilish uchun iqtisodiyotning muayyan segmenti bilan bog'liq bo'lgan m a'lum bir ko'rsatkich ko'rsatkichlarining chegaraviy qiymatlari qo'llaniladi va fond bozori uchun eng yuqori ko'rsatkichlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishga qaratilgan bo'lib, ulaming asosiy mahsullaridan biri tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan milliy moliya bozori hisoblanadi. Milliy moliya bozorining iqtisodiyotdag'i ahamiyatini oshirish muammosi iqtisodiyotni modernizasiyalash, barqaror industrial va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyasiyani pasaytirish maqsadida investitsiyalami jalg qilish zarurligidan kelib chiqadi. Ushbu muammoni samarali echimi moliya bozorining raqobatbardoshliligi va havfsizligi, barqarorligi va likvidliligi, investorlar uchun jalbdorliligi va risksizligi darajasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq. Bunda turli tashqi va fundamental ichki omillar ta'sirini hisobga olish muhim hisoblanadi. Mavjud omillar ichida doimo e'tiborga moyillaridan biri malakali kadrlar omilidir. Chunki «Faqat malakali kadrlar moliya bozori muammolarini hal qila oladilar» degan shior hamisha dolzarbligicha qolmoqda. Bu shior ayniqsa O'zbekiston moliya bozori uchun katta ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, ushbu darslikni yozishga jazm etildi.

Ma'lumki, moliya-kredit sohasi bozor iqtisodiyotidagi transaksiyalarga xizmat ko'rsatish, moliyaviy resurslar (jamg'armalar)ni jamlash, taqsimlash, boshqarish va qayta taqsimlash hamda ulami nazorat qilish funktsiyalarini bajaruvchi murakkab tizimdir. Bunda moliya bozori moliya-kredit sohasi (tizimi)ning alohida bo'g'ini bo'lib, u orqali moliyaviy resurslar moliyaviy vositalar (instrumentlar) yordamida talab va taklif asosida qayta taqsimlanadi. Shuning uchun moliya bozorini moliyaviy instrumentlar bo'yicha talab va taklif funksiyasi deb atash mumkin. Unda iqtisodiyot subyektlari o'z maqsadlari va funktsiyalari ila moliyaviy instrumentlar yordamida bozor munosabatlari kiraclariga kiradilar

Insonlarning ilk bozor munosabatlari tarixiga nazar tashlansa, bozor odamlar o'rtasidagi boyliklami natural tovar sifatida maqsadli va o'zaro manfaatli tarzda oddiy almashinushi jarayonidan boshlangan. Hozirga kelib bozor alohida nazariyasiga va faoliyat mexanizmiga ega, yuqori darajada tartiblashgan murakkab infratuzilma shaklida namoyon boiuvchi dinamik muhitga aylangan bo'lib, zamonaviy iqtisodiyot rivojini obyektiv belgilaydi. Bozoming dinamik muhit ekanligi unda tovarlar hajmi va ulaming bahosi vaqt birligi ichida talab va taklif asosida uzluksiz jarayon sifatida o'zgarib borib shakllanishi bilan belgilanadi. Bunda bozoming eng yuqori darajada rivojlangan turi moliya bozori hisoblanadi. Iqtisodiyotning rivojlanishi tarixiga nazar

tashlansa, moliya bozorini insoniyat jamiyatida pulning paydo bo'lishi va u bilan bog'liq bozor munosabatlari amalga oshirila boshlashidan shakllanishini ko'rish mumkin. Asrlar davomida moliya bozori, uning mazmuni va unga oid tushunchalar shakllanib va uzlusiz rivojlanib kelmoqda. Bunga sabab, inson sivilizatsiyasining moliya sohasidagi tajribasini boyishi, unda shaxslaming (*yuridik va jismoniy*) moliyaviy munosabatlari va qiziqishlari kengayib, maqsadlari va faoliyat turlari ortib, manfaatlari tobora o'sib, ulaming haq-huquqlari borgan sari mustahkamlanib va ta'minlanib borishidadir. Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzlusiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallashib borayotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlar va institutlar (*qatnashchilar*) majmuasi sifatida namoyon bo'lувчи murakkab tizim ekanligi aniq bo'lmoqda. Bunda moliya bozorlari na faqat milliy iqtisodiyot rivojini, balki global iqtisodiyot rivojini ham belgilamoqda. Bunga tasdiq sifatida iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va moliya bozorining o'zaro bog'liqligini keltirish mumkin

O'zbekiston moliya bozorini davlat tomonidan boshqarish samaradorligini oshirish masalalarini o'rganib, bundan tashqari moliya bozorining iqtisodiyotdagি roli, tutgan o'rni, jahon moliya bozorlarining rivojlanish tendentsiyalari, moliya bozori infratuzilmasining holati va dinamikasi, undagi mavjud muammolar hamda ularni hal etish yo'llari tahlili, moliya bozori infratuzilmasini rivojlantirish yo'naliishlari kabi masalalarni ko'rib chiqib quyidagi xulosalarga keldik. Amaldagi qonunchilik bazasi va birja savdolarini yanada takomillashtirish ustida olib borilayotgan ishlar yaqin keljakda qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish orqali bo'sh pul mablag'larini joylashtirishning eng qo'lay usullardan biriga aylanishi shubhasizdir. Keljakda fond birjasи savdolarida investorlar sonini ko'paytirishning asosiy omillari quyidagi masalalarni yechish bilan bog'liqdir:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova I.A "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar" Toshkent 2009 yil.
2. Karimov I.A "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish" Toshkent 2010 yil.
3. Karimov I.A Bank tizimi, pul muomilasi, kredit investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida" F.M.Mullajonov Toshkent NMIU, 2005 yil.
4. Sherbaev A.A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company // International Journal of Economics, Business and Management Studies - ISSN:2347-4378 SJIF Impact Factor(2021) :7.473, (Volume: 8, Issue: 4, April 2021), Pages: 43-53.

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

5. Кобулов Х.А. Вопросы финансовой безопасности в условиях модернизации Республики Узбекистан // «Интернаука»: научный журнал - № 3(132). Часть 2. Москва, Изд. «Интернаука», 2020. - с. 14-16.